

TUNGI HAYVONLAR

Otaxonova Gulasal Boboxon qizi

Urganch Innovatsion Universiteti 3 bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21908605>

(Rachel Bladon)

1-qism Tungi hayot

Quyosh ko'zdan yo'qolgach, chor - atrofga qorong'u tushgan, va tunning birinchi salqin nafasi esgan chog'da.

Ko'pchilik odamlar uchun uyquga ketib, shirin tushlar ko'rish vaqti bo'lsa-da, ko'plab hayvonlar faqatgina kechasi tashqariga ozuqa izlab chiqishadi. Bunday hayvon turlari tungi (nocturnal) hayvonlar deyiladi.

Opossum - xaltali kalamush turiga mansub bo'lib u tungi hayvonlar sirasiga kiradi. U kechqurunlari qornini to'yg'azish maqsadida o'simliklar va mayda hasharotlarni axtaradi.

Kunduzlari esa yirtqich hayvonlardan berkinib uyquga ketadi.

Armadillo - tanasi qattiq zirh (qalqon) bilan qoplangan, asosan Amerikada yashaydigan hayvon turi hisoblanib, u ham tungi hayvonlar qatorida turadi. Armadillo kuniga 17 soatdan ham ko'proq uxlaydi.

Kechasi tashqariga chiqadigan hayvonlar faqatgina tungi hayvonlar emas. Yo'lbars kabi ba'zi hayvonlar kunduzi ham kechasi ham tashqariga chiqadi.

Quyosh singari kechasi tashqarida yurishdan qo'rqadigan boshqa hayvonlar, tun tugab, osmon endigina yorishishni boshlagan, lekin quyosh hali chiqmagan eng sokin vaqt va quyosh o'zining oxirgi va eng go'zal nurini yer yuziga hadya etib, asta - sekin tun pardasi ortiga yashiringan bir paytda tashqariga chiqib o'zlari uchun ozuqa qidirishni boshlashadi.

Ba'zi hayvonlar kechasi tashqariga chiqishining sababi, ularni yeyishni istaydigan yirtqich hayvonlarning ko'pchiligi kunduzlari ovga chiqishida. Ba'zilari esa tunda ko'proq ozuqa topishadi chunki ovga chiqqan boshqa hayvonlarni ovlashadi.

Iqlim mintaqasi judayam issiq bo'ladigan joylarda hayvonlar ba'zida kechqurunlari ham ovga chiqishadi chunki kunduzi havo judayam isib ketadi.